



YEVROPA DAVLATLARIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI O'TKAZISH TAJRIBASI

PhD **Ahmadjonov Azimjon**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0009-6147-7770

akhmadjonov@tpp.uz

Annotatsiya. Maqolada Yevropa davlatlarining auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha keng qamrovli tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqotda Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Belgiya, Italiya, Gretsiya va Irlandiya davlatlarining auditorlik tizimlarining huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmalari, professional standartlari va nazorat mexanizmlari o'rganilgan. Yevropa Ittifoqining auditorlik sohasidagi direktivalari va reglamentlarining ta'siri, shuningdek, korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobotlar shaffofligini ta'minlashda auditorlik nazoratining roli ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: auditorlik faoliyati, Yevropa davlatlari, auditorlik standartlari, professional tashkilotlar, moliyaviy hisobot, korporativ boshqaruv, nazorat mexanizmlari, Yevropa Ittifoqi direktivalari.

ОПЫТ ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОВЕРОК В ЕВРОПЕЙСКИХ СТРАНАХ

Ахмаджонов Азимжон

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ опыта организации и проведения аудиторской деятельности в европейских государствах. Исследование охватывает правовые основы, организационные структуры, профессиональные стандарты и механизмы контроля аудиторских систем Великобритании, Франции, Германии, Бельгии, Италии, Греции и Ирландии. Рассматривается влияние директив и регламентов Европейского союза в области аудита, а также роль аудиторского контроля в обеспечении корпоративного управления и прозрачности финансовой отчетности.

Ключевые слова: аудиторская деятельность, европейские государства, аудиторские стандарты, профессиональные организации, финансовая отчетность, корпоративное управление, механизмы контроля, директивы Европейского союза.

EXPERIENCE OF CONDUCTING AUDIT INSPECTIONS IN EUROPEAN COUNTRIES

PhD **Akhmadjonov Azimjon**

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the experience in organizing and conducting audit activities in European states. The research covers the legal foundations, organizational structures, professional standards, and control mechanisms of audit systems in the United Kingdom, France, Germany, Belgium, Italy, Greece, and Ireland. The influence of European Union directives and regulations in the audit field, as well as the role of audit control in ensuring corporate governance and financial reporting transparency, is examined.

Keywords: audit activity, European states, audit standards, professional organizations, financial reporting, corporate governance, control mechanisms, European Union directives.

Kirish.

Iqtisodiy rivojlangan Yevropa mamlakatlarida auditorlik faoliyati ko'p asrlik tajribaga ega bo'lib, uning rivojlanishiga bozor munosabatlarini o'rnatish jarayonida kapital bozorining paydo bo'lishi, kredit munosabatlarining rivojlanishi kabi jarayonlar iqtisodiy omillar bilan bog'liq holda turtki bergan. Hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirish auditning asosiy tarkibiy qismiga aylanib, raqobat sharoitida xalqaro audit shakllangan hamda o'sishga erishgan. Bu esa, auditning kuchli xalqaro me'yoriy-huquqiy bazasi yaratilishiga, auditni tashkil etish shakllarining batafasil ishlab chiqilishiga xizmat qildi.

Professional auditning vatani Buyuk Britaniya hisoblanadi, chunki 1862-yilda Kompaniyalar to'g'risidagi qonun qabul qilinib, unga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlarini majburiy auditdan o'tkazish tartib-taomili kiritilgan. Shotlandiyada esa, oliy toifali diplomga ega buxgalterlar tashkilotlari tuzilgan. Xususan, 1867-yilda vujudga kelgan Aberdindagi Buxgalterlar jamiyati, 1854-yilda Qirollik Xartiyasi asosida tuzilgan Edinburgdagi Buxgalterlar jamiyati hamda Glazgodagi Buxgalterlar va aktuariylar instituti faoliyat ko'rsata boshlagan.

Hozirgi paytda auditorlik nazorati juda murakkab va yuqori malaka talab qiladigan jarayonga aylanib, bu murakkablik auditning globallashuvi, iqtisodiy faoliyatning turli sohalaridagi o'zgarishlar va moliyaviy hisobotlarning murakkabligi ortib borayotgani bilan bog'liq. Tadqiqotning maqsadi Yevropa davlatlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tajribasini tahlil qilish va O'zbekiston uchun foydali tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar sharhi.

Auditorlik sohasidagi xalqaro tajribalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu mavzu bo'yicha keng qamrovli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Kucherov va Kozicheva (2013) tomonidan olib borilgan tadqiqot chet el mamlakatlarining auditorlik amaliyotlaridagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, turli davlatlarning auditorlik tizimlaridagi farqlar va o'xshashliklarni ko'rsatadi.

Nojkina (2007) tomonidan tayyorlangan xalqaro audit bo'yicha o'quv qo'llanma auditorlik faoliyatining nazariy asoslari va amaliy jihatlarini keng yoritib beradi. Ushbu ishda auditorlik standartlarining xalqaro darajada unifikatsiyalanishi jarayonlari batafsil tahlil qilingan.

Plaksiyenko va Chernenko (2016) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot Yevropa Ittifoqi davlatlarining auditorlik faoliyati rivojlanish istiqbollari va tendensiyalarini taqqoslash metodologiyasi asosida o'rganadi. Ushbu ishda Yel direktivalarining milliy auditorlik tizimlariga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Manuilova (2017) tomonidan tayyorlangan tahliliy ish Yevropa Ittifoqining yangi audit reglamentining jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi subyektlar uchun majburiy audit talablarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, Yel audit siyosatining zamonaviy tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Xalqaro auditorlar federatsiyasi (IFAC) va Jamoat manfaatlarini nazorat qiluvchi xalqaro tashkilot (IFIAR) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar auditorlik sifatini ta'minlash mexanizmlarining global darajadagi holatini baholashga imkon beradi. Ushbu hujjatlar milliy tartibga soluvchi organlar faoliyatining samaradorligini tahlil qilish uchun asosiy ma'lumotlar bazasini tashkil etadi.

Biroq, mavjud tadqiqotlar, asosan, individual davlatlarning tajribalarini yoki ma'lum bir mintaq davlatlarining amaliyotlarini qamrab oladi. Yevropa davlatlarining auditorlik tizimlarini kompleks ravishda taqqoslab o'rganuvchi va ushbu tajribalarni rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shuning uchun, ushbu tadqiqot mavjud ilmiy bilimlar bazasini to'ldirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-tahliliy yondashuv tashkil etadi, bu turli davlatlarning auditorlik faoliyatlarini tizimli ravishda taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv ham qo'llanilgan bo'lib, bu auditorlik faoliyatini yaxlit tizim sifatida qarash va uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini yaratdi.

Tarixiy-mantiqiy tahlil metodi auditorlik institutlarining shakllanish jarayonlarini va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda qo'llanildi. Bu yondashuv zamonaviy auditorlik amaliyotlarining shakllanishiga ta'sir etgan tarixiy omillarni aniqlash va ularning mantiqiy ketma-ketligini tushunish imkonini berdi.

Induksiya va deduksiya metodlari tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llanildi. Induksiya metodi individual davlatlarning tajribalarini o'rganish asosida umumiy xulosalar chiqarish uchun, deduksiya metodi esa umumiy nazariy tamoyillardan kelib chiqqan holda konkret tavsifalar ishlab chiqish uchun ishlatildi.

Sintez va umumlashtirish metodlari turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish va umumiy tendensiyalarni aniqlash maqsadida qo'llanildi. Kontent-analiz metodi normativ-huquqiy hujjatlar va professional standartlarni tahlil qilishda ishlatildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va Buyuk Britaniyaning auditorlik tizimlarining huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmalari va amaliy faoliyati tanlab olingan. Tadqiqotning predmetini ushbu davlatlarning auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha amaliyotlari, shuningdek, ularning professional standartlari va nazorat mexanizmlari tashkil etadi.


Ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish jarayonida birlamchi va ikkilamchi manbalardan foydalanildi. Birlamchi manbalarga Yevropa Ittifoqining direktiva va reglamentlari, milliy qonunchilik hujjatlari, professional tashkilotlarning nizom va qoidalari kiradi. Ikkilamchi manbalar sifatida ushbu soha bo'yicha e'lon qilingan ilmiy ishlar, tahliliy hisobotlar va professional nashrlar ishlatildi.

Tadqiqotning ishonchliligi bir necha manbalardan olingan ma'lumotlarni tekshirish (triangulatsiya) va turli davlatlarning amaliyotlarini qiyoslash orqali ta'minlandi. Ma'lumotlarning dolzarbligi va aniqligini ta'minlash maqsadida eng so'nggi rasmiy hujjatlar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Buyuk Britaniyada bir necha jamoat birlashmalari va buxgalteriya institutlari tashkil etilgan bo'lib, ular auditorlik faoliyatini nazorat qilish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Auditning asosiy maqsadi kompaniyaning direktorlari moliyaviy hisobotlarni to'g'ri va xolisona tayyorlaganliklari to'g'risida xulosa berishdan iborat. Auditorlarning malakasi buxgalteriya organlari maslahat qo'mitasining 6 ta institutidan biriga a'zo bo'lish bilan tasdiqlanishi shart.

Buyuk Britaniyada bir necha jamoat birlashmalari va buxgalteriya institutlari tashkil etilgan (1-rasm).




1-rasm. Buyuk Britaniyaning asosiy buxgalteriya va auditorlik faoliyatini nazorat qiluvchi jamoatchilik tashkilotlari

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Auditorlik xulosasiga kelish uchun auditorlar auditorlik dalillarini olish maqsadida ma'lum tartib-taomillarni amalga oshirishlari lozim, chunki moliyaviy hisobotda jiddiy xatoliklar mavjud emasligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Shuningdek, moliyaviy hisobot amaldagi qonunchilik va buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq tayyorlanganligi haqidagi fikr ta'minlanishi zarur.

Barcha kompaniyalar ham o'z hisobotini auditdan o'tkazishi shart emas va ayrim kompaniyalar, masalan, ishlamayotgan yoki kichikroq kompaniyalar auditdan ozod bo'lishga da'vo qilishi mumkin. Auditdan ozod qilish uchun qo'llaniladigan malaka mezonlari shuni ko'rsatadiki, kompaniya belgilangan talablarning kamida ikkitasiga javob berishi shart.

Buyuk Britaniyada auditorlik faoliyati moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida kreditorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan. Bu faoliyat, asosan, professional assotsiatsiyalar va institutlar tomonidan nazorat qilinib, bu Buyuk Britaniyaning auditorlik faoliyatini tartibga solishda mustaqil yondashuvini namoyon qiladi. Audit quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi (2-rasm).



2-rasm. Buyuk Britaniyada audit tekshiruvlari o'tkazilishining asosiy maqsadlari

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Davlat ham auditorlik sohasida muhim rol o'ynaydi. Bu rol Milliy auditorlik kengashi orqali amalga oshiriladi, u Bosh auditor tomonidan boshqarilib, davlat xarajatlarining samaradorligi va shaffofligini tekshirish uchun javobgardir. Milliy auditorlik kengashi, o'z navbatida, parlamentga hisobot beradi va davlat sektoridagi moliyaviy hisobotlar auditini amalga oshiradi.

Anglo-Sakson davlatlari, jumladan, AQSh va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda audit nazorati, ko'pincha, mustaqil auditorlar yoki auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladi. Auditorlik firmalari, ayniqsa, katta xalqaro auditorlik tarmoqlari, masalan, "Big Four" deb ataladigan Deloitte, PwC, EY va KPMG kompaniyalari o'zlarining keng ko'lamli xizmatlari, ko'plab hamkorlari va minglab ishchi-xodimlari bilan tanilgan. Bu kabi firmalar global iqtisodiyotning turli sohalaridagi korporatsiyalar va tashkilotlar uchun auditorlik va maslahat xizmatlarini taqdim etadi.

Auditorlik nazoratini amalga oshirish uchun kirish va joriy imtihonlaridan o'tish talab qilinadi, bu imtihonlar so'nggi yillarda ancha murakkablashtirilgan. Auditorlardan nafaqat moliyaviy hisobotlar va iqtisodiy operatsiyalarni tushunish, balki sohadagi eng so'nggi me'yoriy o'zgarishlar va innovatsiyalardan xabardor bo'lish ham talab qilinadi.

AQSh, Yevropa va Yaponiya kabi mamlakatlarda iqtisodiy inqirozlar va korporativ moliyaviy hisobot bilan bog'liq mojarolar 2000-yillar boshlarida jahon iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Enron, WorldCom va Tyco kabi yirik korporatsiyalarning moliyaviy hisobotlarida katta miqdorda qallobliklar va buxgalteriya aldovlari fosh qilindi. Bu mojarolar korporativ boshqaruv, moliyaviy shaffoflik va auditorlik standartlari bo'yicha jiddiy muammolarni ko'rsatib, ishonch inqiroziga va kapital bozorlaridagi barqarorlikni susaytirishga olib keldi. Mazkur voqealarga javoban, 2002-yilda AQSh Kongressi Sarbeynz-Oksli qonunini qabul qildi. Bu qonun korporativ boshqaruv, moliyaviy hisobot va auditorlik

faoliyati uchun yangi va qattiqroq talablarni belgilab berdi. Qonunning asosiy maqsadlari korporativ boshqaruvni mustahkamlash, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish va auditorlik faoliyatini nazorat qilishdan iborat edi.

Germaniyada auditni kiritishga ilk qadam 1870-yilda qo'yildi, bu vaqtda Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunga kiritilgan qo'shimchalar ushbu jamiyatlar kuzatuv kengashlarini balans, foyda taqsimoti to'g'risidagi hisobot tekshiruvini o'tkazish va tekshiruv natijalarini aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida e'lon qilishga majbur etardi.

Germaniyaning auditorlik tizimi Auditorlar palatasi tomonidan tartibga solinadi va auditorlar professional ustavi to'g'risidagi qonun asosida ishlaydi. Auditorlik standartlari sifatida xalqaro audit standartlari qo'llaniladi.

Italiyada auditorlik faoliyati mamlakatning huquqiy tizimi va kasbiy standartlariga muvofiq tashkil etilgan va boshqariladi. 1992-yilda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra, qonuniy auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun shaxslar maxsus Adliya vazirligi tomonidan nazorat qilinadigan reyestrda kiritilishi shart.

Italiyada auditorlar ikki asosiy toifaga bo'linadi. "Dottori kommercialisti" toifadagi auditorlar asosan moliyaviy hisobotlarni tekshirish va tasdiqlash bilan shug'ullanadilar. Ular moliyaviy hisobotlarning aniqligi va xalqaro hamda milliy buxgalteriya standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun mas'uldirlar. "Radjioneri" toifasidagi mutaxassislar esa, asosan, buxgalteriya hisobini tuzish va buxgalteriya hisobotlari bo'yicha joriy maslahatlar berish bilan shug'ullanadilar.

Belgiyada buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi qonuniy asoslarni tashkil etish va ularni boshqarish bir qator muhim hujjatlar bilan amalga oshiriladi. 1999-yilgi Jamoatchilik kodeksi Belgiyadagi kompaniyalarning tashkiliy qurilishi, moliyaviy hisoboti va audit talablari kabi jihatlarini tartibga soladi.

Belgiya Qirolining 2001-yilgi va 2003-yil 4-dekabrdagi farmonlari, asosan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tuzish amaliyotini aniqlashtiradi. 2013-yilda qabul qilingan Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tuzish standartlarini, shuningdek, buxgalterlar va auditorlarning kasbiy faoliyati uchun qo'yiladigan talablarni yanada takomillashtiradi.

Gretsiyada auditorlik sohasining kasbiy va tashkiliy jihatlarini "Some Orkoton Elegton (SOE)" nomli Sertifikatga ega auditorlar instituti orqali tartibga solinadi. Bu tashkilot auditorlarning rasmiy kasbiy uyushmasi sifatida mamlakatda auditorlik standartlarini belgilash, auditorlar faoliyatini nazorat qilish va ularning kasbiy rivojlanishiga ko'maklashish maqsadlarida ish olib boradi.


SOEning faoliyati auditorlik sohasida transparentlik va professionalizmni ta'minlashga, shuningdek, moliyaviy hisobotlar ishonchliligi va auditorlik xizmatlarining sifatini oshirishga qaratilgan (3-rasm).

Irlandiyada auditorlik faoliyatining huquqiy asosi 1990-yilda qabul qilingan Kompaniyalar to'g'risidagi qonun orqali belgilangan. Bu qonunga muvofiq, Savdo, tadbirkorlik va bandlik vazirligi tomonidan tan olingan va ma'qullangan 5 ta kasbiy tashkilot mamlakatda auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

Hozirgi kunda auditning huquqiy tartibga solinishi, ayniqsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, mazkur ittifoqning iqtisodiy integratsiya jarayonlari va ushbu integratsiya doirasida buxgalteriya hisobi va audit amaliyotini birxillashtirishga qaratilgan harakatlari bilan chambarchas bog'liq.


Yelning audit standartlari va qoidalarini birxillashtirishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlaridan biri 2006-yilda qabul qilingan Auditorlik faoliyati direktivasi va 2014-yildagi Audit reglamentidir. Bu hujjatlar auditorlar va auditorlik firmalarining kasbiy malakasi, etikasi va mustaqilligiga oid talablarni, shuningdek, audit natijalarining sifatini nazorat qilish mexanizmlarini belgilab beradi.

Yelning 2014/56/ES Direktivalari va №537/2014 Reglamenti talablariga muvofiq, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari quyidagi audit standartlarini qo'llashlari mumkin (4-rasm):



3-rasm. Gretsiyada auditorlik hisobotining zaruriy xususiyatlari (Мануилова, 2017)

Auditorlik faoliyati direktivasi auditorlik firmalarining ro'yxatga olinishi, auditorlarning kasbiy tayyorgarligi va litsenziyalanishi, auditorlik hisobotlarining shaffofligi va auditorlik faoliyatining mustaqilligiga oid umumiy qoidalarni o'rnatadi. Audit Reglamenti esa, jamoat manfaatiga taaluqli korxonalar uchun auditorlik faoliyatining qat'iyroq talablarini belgilaydi, jumladan, auditorlik firmalarining almashinuvi va auditorlarning mustaqilligini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.




4-rasm. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qo'llaydigan audit standartlari

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining auditorlik faoliyati haqidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilinganida, faoliyatning ushbu sohasidagi qator masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlarning o'xshashligini ko'rish mumkin. Masalan, aksariyat mamlakatlarning me'yoriy hujjatlarida korxonaning yillik moliyaviy hisobotini majburiy auditdan o'tkazish to'g'risidagi nizom mavjud.

Yelga a'zo har bir davlat audit sifatini ta'minlash uchun belgilangan mezonlarga rioya etishi shart. Auditor tashkilotlari faoliyatining kompetentligi va shaffofligini aniqlash uchun tartibga soluvchi organ bir qancha funksiyalarni amalga oshiradi. Yelga a'zo har bir davlat quyidagi mezonlarga rioya etgan holda audit sifatini ta'minlashi shart (5-rasm).



5-rasm. Yelga a'zo har bir mamlakat audit sifatini ta'minlashi shart bo'lgan mezonlar
(Audit Exemption. Companies Act, 2014)

Yevropa davlatlarida auditorlik faoliyati va tekshiruvlarini tashkil etish tizimi tahlil qilinganida, har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Biroq, umumiy tendensiyalar va yondashuvlarda o'xshashliklar ham kuzatiladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijasida Yevropa davlatlarining auditorlik faoliyati bozor munosabatlari bilan birga rivojlanish bosqichidan o'tganligi aniqlandi. Kompaniyalar tomonidan hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirish auditning asosiy tarkibiga aylanib, raqobat sharoitida xalqaro audit shakllangan hamda o'sishga erishgan.

Yevropa Ittifoqi direktivalari kompaniyalarning yillik hisobotlari va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari sifatini yaxshilash, ularning haqiqiyligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan. Bu direktivalar majburiy auditga qo'yiladigan minimal talablarni, rasmiy auditorlarning majburiyatlarini, axloqiy talablarni belgilaydi, tashqi sifat nazorati bo'yicha talablarni kiritadi va auditorlik kasbi ustidan samarali jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi.

Yel davlatlarida auditorlik faoliyatining rivojlanishi auditning kuchli xalqaro me'yoriy-huquqiy bazasini yaratishga, auditni tashkil etish shaklini batafsil ishlab chiqishga xizmat qildi. Bu AXSni qo'llash uchun infratuzilmani yaratishga xizmat qiluvchi IFACning barcha talablari bajarilishini ta'minlaydi.

Yevropa davlatlarining tajribasidan o'rganadigan jihatlari juda ko'p. Jumladan, Buyuk Britaniyada mustaqil audit institutlari faoliyat yuritadi va ushbu institutlar auditorlik faoliyatini nazorat qiladi, audit normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqadi, xalqaro auditorlik tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, konferensiyalar tashkil etadi, auditorlarning malakasini oshiradi va audit bozorining xizmatlar tarkibini takomillashtirib boradi.

So'nggi yillarda YeI davlatlarida auditorlarni rotatsiya qilish va faoliyatini muzlatish jarayoni amaliyotga joriy etildi. Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning rotatsiya qilinishi xo'jalik yurituvchi subyektlar tekshiruvini samaradorligi va audit ish sifatining nazoratida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Association of Chartered Certified Accountants (ACCA). (2020) *Professional Standards and Ethics*. – London: ACCA.

Audit Exemption. Companies Act (2014) [Electronic resource]. Available at: www.charteredaccountants.ie/Member/Technical/Companies-Act-2014/Audit-Exemption

Audit Exemption. Companies Act (2014) [Электронный ресурс]. - Режим доступа: www.charteredaccountants.ie/Member/Technical/Companies-Act-2014/Audit-Exemption (дата обращения: 08-10.06.17).

Companies House. (2019) *UK Company Law and Corporate Governance Framework*. – London: HM Government.

European Commission. (2014) *Regulation (EU) No 537/2014 of the European Parliament and of the Council on specific requirements regarding statutory audit of public-interest entities*. – Official Journal of the European Union.

European Commission. *Directive (2006)/43/EC of the European Parliament and of the Council on statutory audits of annual accounts and consolidated accounts*. – Official Journal of the European Union, 2006.

Institute of Chartered Accountants in England and Wales (ICAEW). (2021) *Code of Ethics for Professional Accountants*. – London: ICAEW.

International Federation of Accountants (IFAC). (2019) *International Standards on Auditing*. – New York: IFAC.

Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB). (2020) *Auditing Standards and Related Amendments*. – Washington: PCAOB.

Кучеров А.В. (2013) Особенности аудита за рубежом / А.В. Кучеров, Я.М. Козичева // Молодой ученый. – № 5. – С. 339–343.

Мануилова Н. (2017) Новый Регламент ЕС по аудиту: особые требования об обязательном аудите субъектов общественного интереса / Н. Мануилова [Электронный ресурс]. – Режим доступа: siteresources.worldbank.org/EXTCENFINREPREF/Resources/4152117-1380634652337/9346897-1422881054858/kyiv_21Jan_4.pdf

Ножкина Т.В. (2007) *Международный аудит: Учебное пособие* / Т.В. Ножкина. – Петропавловск-Камчатский: КамчатГТУ, – 127 с.

Плаксииенко В.Я. (2016) Перспективы развития аудиторской деятельности в Украине в сравнении со странами ЕС / В.Я. Плаксииенко, К.В. Черненко // Науковий вісник Ужгородського національного університету. Випуск 7, частина 3. – С. 12–14.